



RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI HUDUDIY TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY MODELLARI VA O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Raximov Abror

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-7278-7191

abror.rakhimov@uiv-silkroad.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli turizm platformalarining hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi roli va xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribasi o'rganilgan. Tadqiqotda Osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Yevropadan Italiya misolida raqamli turizm platformalarini joriy etishning samarali modellari tahlil qilingan. Qiyosiy tahlil asosida O'zbekistonning turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolar aniqlangan va raqamli platformalarni milliy sharoitga moslashtirib qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli turizm, raqamli platforma, hududiy turizm infratuzilmasi, xorijiy tajriba, raqamli transformatsiya, smart turizm, davlat-xususiy sheriklik, O'zbekiston, qiyosiy tahlil.

ЗАРУБЕЖНЫЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ ТУРИСТСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рахимов Аброр

Международный университет туризма и культурного наследия «Шёлковый путь»

Аннотация. В данной статье исследуется роль платформ цифрового туризма в развитии региональной туристической инфраструктуры и передовой зарубежный опыт в данной области. В исследовании были проанализированы эффективные модели внедрения цифровых туристических платформ на примерах Китая (Азия) и Италии (Европа). На основе сравнительного анализа выявлены существующие проблемы туристической инфраструктуры Узбекистана и определены перспективные направления адаптации цифровых платформ к национальным условиям.

Ключевые слова: цифровой туризм, цифровая платформа, региональная туристическая инфраструктура, зарубежный опыт, цифровая трансформация, цифровая трансформация, государственно-частное партнёрство, Узбекистан, сравнительный анализ.

FOREIGN MODELS OF DEVELOPING REGIONAL TOURISM INFRASTRUCTURE THROUGH DIGITAL PLATFORMS AND PROSPECTS FOR THEIR IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN**Rakhimov Abror***"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage*

Abstract. *This article examines the role of digital tourism platforms in developing regional tourism infrastructure and the advanced international experience in this field. The study analyzed effective models for implementing digital tourism platforms, using the examples of China from Asia and Italy from Europe. Based on comparative analysis, existing challenges in Uzbekistan's tourism infrastructure are identified, and promising directions for adapting digital platforms to national conditions are outlined.*

Keywords: *digital tourism, digital platform, regional tourism infrastructure, international experience, digital transformation, smart tourism, public-private partnership, Uzbekistan, comparative analysis.*

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalarning o'rnini tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo'ylab turistik xizmatlar sohasining umumiy daromadlarining taxminan 70 foizi 2024-yilda raqamli platformalar orqali shakllantirilgani bu sohada tub o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi (UNWTO, 2024).

Hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirishda raqamli platformalarning qo'llanilishi nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki turistlar oqimini boshqarish, hududlarni targ'ib qilish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash imkoniyatlarini ham kengaytiradi. O'zbekistonda ham ushbu sohadagi islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmonida 2019–2025-yillarga mo'ljallangan turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda turizm infratuzilmasini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan (Farmon, 2019).

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son Farmoni asosida esa turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarida davlat-xususiy sheriklik hamda raqamlashtirishni rivojlantirish masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilgan (Farmon, 2022). Ushbu qaror va farmolar mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirishda raqamlashtirishni o'rnini oshirishga xizmat qiluvchi asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu asoslar xalqaro darjadagi model-mexanizmlarni mamlakatimiz turizm sohasiga joriy etishni ham maqsad qiladi. Xalqaro amaliyotda raqamli turizm platformalari hududiy infratuzilmani rivojlantirishning samarali vositasiga aylandi. Shuningdek, Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat ko'magida yaratilgan yagona raqamli turizm platformalari xususan, "Smart Tourism" tizimi turistik oqimlarni 40 foizga oshirish imkonini bergan. Italiyada esa "Italia.it" milliy raqamli platformasi hududlararo turizm koordinatsiyasini ta'minlab, kichik shaharlar va qishloqlarning turistik jozibadorligini sezilarli darajada oshirgan. O'zbekiston ham ushbu xorijiy tajribalardan saboq chiqarish va ularni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish imkoniyatlariga ega. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hududiy turizm infratuzilmasini raqamli platformalar orqali rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Raqamli turizm platformalarini joriy etishning xorijiy modellari qiyosiy tahlil etilmagan, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning samarali mexanizmlari aniqlanmagan. Aynan mana shu ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli turizm platformalari va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu sohada to'plangan nazariy va empirik bilimlar bazasini aks ettiradi. Tadqiqot predmetiga oid asosiy yo'nalishlar quyidagilar: raqamli turizm platformalarining ta'rifi va tasnifi; xorijiy mamlakatlar tajribasi; hamda ushbu tajribalarni rivojlanayotgan mamlakatlarga tatbiq etish imkoniyatlari.

Buhalis (2003) keyinchalik o'zining 2020-yilgi "Technology in tourism — from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism" maqolasida esa raqamli texnologiyalar evolyutsiyasini uch bosqichda tavsiflagan: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli turizm va sun'iy intellektga asoslangan "ambient intelligence" turizm tizimi. Muhim xulosasi shuki, texnologik innovatsiyalar barcha turizm manfaatdor tomonlarini yagona ekotizimda birlashtiradi va turistlarga sayohatning barcha bosqichlarida qiymat yaratish imkonini beradi. D. Buhalisning modeli O'zbekistondagi hududiy turizm infratuzilmasiga tatbiq etilganda, "ekotizim" yondashuvi muhimdir viloyatlar bo'yicha tarqoq holatda mavjud turizm ob'ektlarini yagona raqamli platforma orqali integratsiyalash buning amaliy ifodasidir.

Amerika olimasi Gretzel va uning hammuallif (2015) jamoasi "Smart tourism: foundations and developments" maqolasida "smart turizm" tushunchasini besh qatlamli model orqali izohlagan: jismoniy qatlam tabiiy va sun'iy turistik resurslar, smart texnologiyalar qatlami, ma'lumotlar qatlami, biznes qatlami va tajriba qatlami. Gretzel va Wertner esa smart turizm ekotizimini "aqli texnologiyalar yordamida turizm xizmatlarini yaratuvchi, boshqaruvchi va taqdim etuvchi tizim" deb ta'riflagan bo'lib, bu tizimning asosiy xususiyati intensiv ma'lumot almashish va qiymat hamkorligida yaratishdir. Gretzel (2015) modelining hududiy turizm infratuzilmasiga nisbatan qo'llanilishi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning hozirgi holatida birinchi navbatda quyi texnologiyalar va ma'lumotlar qatlamlarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanishi lozim.

Xitoy turizm sohasini raqamlashtirish borasida eng ilg'or tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. "Scientific Reports" (2024) jurnalida chop etilgan tadqiqotda Xitoyning 31 viloyatida 2011–2022-yillar davomida raqamli texnologiyalar va turizm samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik o'lchanib, raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan hududiy turizm samaradorligi o'rtasida statistik jihatdan muhim ijobiy korrelyatsiya aniqlangan.

Bundan tashqari, 2025-yilning iyun oyida Xitoyning Chjejiang viloyatida mamlakatda birinchi bo'lib viloyat miqyosidagi smart turizm platformasi "Zhejiang Travel" rasman ishga tushirildi. Ushbu platforma Alibaba'ning "Tongyi Qianwen" va DeepSeek sun'iy intellekt tizimlari asosida yaratilgan bo'lib, sayohatni rejalashtirish, real vaqt tarjimasini, yo'l-transport xizmati va AI-asoslangan turistik fotosurat kabi to'rtta asosiy modulni o'z ichiga oladi (China Daily, 2025).

Xitoy modelini O'zbekiston sharoitiga mos keladigan birinchi jihati, davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan bo'lib, O'zbekiston ham ushbu mexanizmni qonunchilik darajasida mustahkamlagan; ikkinchidan, viloyat miqyosida bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi O'zbekistonning hududiy ma'muriy tuzilmasiga mos keladi; uchinchidan, kichik shaharlardagi turistik obyektlarni yagona platforma orqali birlashtirish tamoyili O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko'p sonli shaharlari uchun bevosita qo'llanilishi mumkin.

Italiya Yevropa miqyosida turizm sohasini raqamlashtirish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Springer nashriyatida chop etilgan "Smart Tourism and Platforms. Italia.it, the Italian Tourism Digital Hub" ilmiy asarida hukumat tomonidan yaratilgan "Italia.it" platformasining hududiy turizm infratuzilmasiga integratsiyalashuvi holat tadqiqoti sifatida tahlil qilingan (Buhalis, Foerste, 2024). Hukumatlar turizm biznes modellarini raqamli transformatsiya qilish uchun tegishli institutsional sharoitlar yaratganda davlat investitsiyalari, me'yoriy-huquqiy baza va kichik korxonalar uchun raqamli imkoniyatlar keng ko'lamli iqtisodiy va tashkiliy samara vujudga kelishini empirik jihatdan isbotlagan.

OECD (2025) tomonidan 2025-yilda chop etilgan rasmiy hisobotda esa Italiyaning "Raqamli Turizm Markazi" (Digital Tourism Hub) ekotizimining to'rtta asosiy yo'nalishi ko'rsatilgan: raqamli infratuzilmaga investitsiya, sun'iy intellekt modellari yordamida ma'lumotlar tahlili, turizm korxonalarini uchun asosiy raqamli xizmatlar va "Wi-Fi by Italia.it" tarmog'i orqali turistik yo'nalishlarda bog'lanishni ta'minlash.


Italiya modelini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish istiqbollari quyidagicha baholanadi. O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi Italiya tajribasidagi kabi ixtisoslashgan turizm yo'nalishlarini raqamli platforma orqali targ'ib qilish uchun katta salohiyat taqdim etadi; davlat miqyosida yagona portal yaratish va uni hududiy kontent bilan to'ldirish modeli O'zbekiston uchun bevosita qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot metodlogiyasi.

Ishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil metodi, iqtisodiy-statistik tahlil, Induktiv va deduktiv metodlar, tizimli tahlil metodi hamda monografik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonga keluvchi turistlarning 40 foizga yaqini Xitoy, MDH va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan keladi, Alipay tizimi 40 dan ortiq raqamli hamyon bilan to'lov mushtarakligini ta'minlaydi. To'lov standartlarining hududiy turizm integratsiyasining asosiy kuchu sifatida namoyon bo'lishi va raqamli to'lovga asoslangan turizm ekotizimining shakllanishiga olib keladi. Italiyada "Italia.it" platformasi hududlardagi kichik korxonalarini yagona milliy portal orqali birlashtirish yo'li bilan yaratilgan.



1-rasm. O'zbekistonda raqamli turizm platformasini joriy etish modeli

Manba: Xitoy va Italiya tajribasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi ikkala modelni O'zbekistonga to'liq nusxalash mumkin emas. Buning asosiy sabablari quyidagilar: birinchidan, O'zbekiston hududlarida internet qamrovining pastligi 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra 70,4 foiz; ikkinchidan, turizm korxonalarining raqamli imkoniyatlari chegaralanganligi; uchinchidan, sayyohlar uchun xorijiy to'lov tizimlari integratsiyasining zaif ekanligi. Shu sababli tadqiqotda O'zbekiston uchun bosqichli uch fazali moslashtirilgan model taklif etiladi (1-rasm). Ushbu bosqichda turistik ob'ektlarda QR-kod infratuzilmasini o'rnatish, mahalliy to'lov tizimlari hamda xorijiy kartalar bilan mushtaraklikni ta'minlash va huquqiy-me'yoriy bazani shakllantirish ko'zda tutiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva tanlanib, "Uzbekistan Travel" mobil ilovasi va "visit.uz" portali ko'p tilda ishga tushiriladi. Barcha hududlarni yagona platforma orqali birlashtirish, Big Data va sun'iy intellekt yordamida tahlil tizimi yaratish va xalqaro platformalar bilan to'liq integratsiyaga erishish mo'ljallanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Xitoy va Italiya modellarini O'zbekistonga to'liq ko'chirish mumkin emas raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, turizm korxonalarining tayyor emasligi va hududiy internet qamrovining pastligi bunga asosiy to'siq bo'lmoqda. Shu bois taklif etilgan uch bosqichli moslashtirilgan model ikki modelning kuchli tomonlarini Xitoyning QR-to'lov ekotizimi va Italiyaning yagona portal arxitekturasini O'zbekiston sharoitiga muvofiqlashtirgan holda birlashtiradi. Modelning asosiy ustunligi shundaki, u mavjud milliy tizimlar asosiga qurilgan va davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq modelning muvaffaqiyati ko'p jihatdan hukumatning siyosiy irodasi va hududlardagi raqamli savodxonlikni oshirishga bog'liq bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Xitoy va Italiya modellarining optimal xususiyatlarini sintez qilgan holda O'zbekiston uchun moslashtirilgan uch bosqichli raqamli turizm platformasi modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modelning joriy etilishi mamlakatdagi turizm infratuzilmasini raqamlashtirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar / *Jumepamyra* / Reference:

Buhalis, D. (2003) *eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management*. London: Pearson (Financial Times/Prentice Hall), - 376 p. – ISBN: 0582357403.

Buhalis, D., Foerste, M. (2024) *Smart Tourism and Platforms. Italia.it, the Italian Tourism Digital Hub // Information and Communication Technologies in Tourism 2024*. — Cham: Springer, — DOI: 10.1007/978-3-031-65332-2_1.

China Daily HK. (2025) *China's first provincial-level smart tourism platform for inbound travelers launched*. 27 June. - URL: <https://www.chinadailyhk.com/hk/article/614783>.

Farmon (2019) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni*. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 06.01.2019. — 06/19/5611/2430-son. [www.lex.uz]

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-52-son Farmoni*. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — 15.01.2022. — 06/22/52/0029-son. [www.lex.uz]

Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., Koo, C. (2015) *Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets*. Vol. 25. № 3. - P. 179–188. - DOI: 10.1007/s12525-015-0196-8.

Gretzel, U., Werthner, H., Koo, C., Lamsfus, C. (2015) *Conceptual foundations for understanding smart tourism ecosystems // Computers in Human Behavior*. Vol. 50. - P. 558–563. — DOI: [10.1016/j.chb.2015.03.043](https://doi.org/10.1016/j.chb.2015.03.043).

OECD. (2025) *Promoting the digitalisation of the tourism ecosystem in Italy*. — Paris: OECD Publishing, URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/07/promoting-the-digitalisation-of-the-tourism-ecosystem-in-italy_33726375/63616a85-en.pdf.

Scientific Reports. (2024) *Spatio-temporal effects and influence mechanism of digital technology on tourism efficiency in Chinese provinces*. DOI: [10.1038/s41598-024-74367-8](https://doi.org/10.1038/s41598-024-74367-8). — URL: <https://www.nature.com/articles/s41598-024-74367-8>.

World Tourism Organization (UNWTO). (2024) *International Tourism Highlights, Edition*. — UN Tourism, Madrid, 2024. — DOI: <https://doi.org/10.18111/9789284425808>.